

O'zbek xalq dostonlari

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni o'zida birlashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kelganlar. Ushbu jildga Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar— Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-ona va farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

SILSILA DOSTONLAR

Folklor xalq badiiy madaniyatining asosi va tarkibiy qismidir. U ma'naviyatning tarixiy asoslari va zamini bo'lishi bilan birga uning bugungi holatini yanada boyituvchi va rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbai hamdir. Chunki mustaqillik sharoitida jamiyat yetukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma'naviy dunyosi boyligini ta'minlashda badiiy madaniyatning, jumladan, folklorning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlar jonli aloqasi va vorisligini o'zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langanliklari tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa, yuksak axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni to'plash, o'rganish va nashr etish hamisha dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Bu ulkan boylikning asosiy tarkibiy qismlaridan birini xalq dostonlari, jumladan, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari tashkil etadi.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ko'pgina xalqlar orasida juda keng tarqalgan bo'lib, ayrim xalqlarda baxshilar tomonidan hozir ham kuylanib kelinmoqda. Bu dostonlar o'zbek, tojik, turkman, ozarboyjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlari epik ijodiyotida o'ziga xos turkumlarni tashkil etadi. Go'ro'g'li Sibir tatarlari, Bulg'or turklari, Eron ozarboyjonlari, Stavropol turkmanlari, Afg'oniston o'zbeklarining ham sevimli epik qahramonlaridan biridir. Turkumning ayrim lavhalari O'rta Osiyo (Buxoro) arablaridan ham yozib olingan. Bunday keng hududda, asosan, turkiy elatlar va qisman turkiy bo'lmagan xalqlar orasida juda ham keng miqyosda tarqalgan, turkumlashishning barcha xillarini o'z ichiga olgan bunchalik ko'p tarmoqli biror-bir epik asarni dunyo folklorshunosligi bilmaydi. Shuning uchun ham ozarboyjon versiyasining 13 majlisini (dostonini) yozib olib, 1842-yilda uning inglizcha takjimasi bilan nashr etgan diplomat A. Xodzko: "Osiyoda biror burchak yo'qki, u yerda Go'ro'g'lining nomi aytilmasin. Hatto Bessarabiya va Moldaviyada ham uning otini eshitasiz. Agar adiblarning shuhrati va mashhurligi ularning o'quvchilarining soni bilan hisoblansa, unda Firdavsiy Go'ro'g'lidan biroz ortiq bo'ladi", — deb yozgan edi. Olimlar "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining kattakon ikki tarmoqqa bo'linishini qayd etadilar.

Fanda ularning biri Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalari (ozarboyjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchisi O'rta Osiyo versiyalari (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq,

turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoqqa birlashgan versiyalar o'zaro muayyan umumiyliklarga ega bo'lsalar-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan baho jihatidan, ularning hajmi, tarkibi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari bilan bir-birlaridan jiddiy ravishda farq ham qiladi.

Turkumning ozarboyjon versiyasi Zakavkazye va Yaqin Sharq versiyalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni o'zida to'la ifodalay oladi, deb hisoblash mumkin. Bu versiyada tasvirlanishicha, Go'ro'g'li qirq yigitga bosh bo'lib, mavjud tuzumga qarshi isyonkorlik harakatlari olib boradi. Kutilmaganda, savdogarlar karvonini talaydi, o'ziga dushman qo'shni podsholiklarni yengadi, bunday janglarda ajoyib jasorat va qahramonliklar ko'rsatadi; cho'pon, otboqar, darbadar baxshi, duoxon, folbin qiyofalarida dushman ichiga kirib, juda usta tadbirkorlik bilan asir tushgan yigitlariga yordam beradi, o'ziga va yigitlariga ma'qul bo'lgan go'zallarni olib qochadi. Ko'ro'g'lining jasorati va mardliklari haqidagi bunday hikoyalar yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega. Bu hikoyalar mag'zida xalq og'zaki ijodi bo'yoqlaridagi real tarix yotibdi. Turkiya sultoni yoki Eron shohlariga tobe bo'lgan yarim mustaqil podsholiklardagi turli xil saroy intrigalari, hukmdorlar yashagan gavjum savdo va hunarmandlik shaharlaridagi hayot, katta karvon yo'llaridagi janglar ozarboyjon versiyasining tarixiy asoslari hisoblanadi va bu versiyaga ko'ra, Go'ro'g'li Eron shohi Abbas I ning (1585—1628) zamondoshi qilib ko'rsatiladi. Chindan ham arman tarixchisi Arakel Tavriziy (vafoti 1670-yil)ning ko'rsatishicha, shoh Abbas va Turkiya sultoniga qarshi qo'zg'olon ko'targanlarning boshliqlaridan biri Go'ro'g'li boigan. "Bu hozir oshiqlar kuylayotgan juda ko'p qo'shiqlarni to'qigan Go'ro'g'lining xuddi o'zi", — deya aniqlik kiritadi arman tarixchisi.

Demak, ozarboyjon versiyasida konkret shaxs va davr bilan bog'liq voqealar tengsiz kuch-qudrat va shijoat, olijanob insoniy fazilatlar ideali nuqtai nazaridan kuylanadi. Ammo bunda umumlashtirish va ideallashtirish muayyan davr va tarixiy voqealarni inkor etish darajasida emas, balki u (xalq ideali) konkret biografik detallar va hayotiy lavhalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida esa umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko'ramiz. Bunda qahramonona o'tmish aniq tarixiy voqealar aspektida emas, balki mislsiz romantik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. Hamma narsa — hayot ham, xalq turmushi ham, tarixiy voqelik ham, mavjud zamon yetishtirgan qahramonlar ham ko'tarinki romantik bo'yoqlarda, bepoyon ideal badiiy tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepoyon ideallik va cheksiz romantika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamohang qilgan. O'zbek "Go'ro'g'li"si boshqa xalqlar "Go'ro'g'li"sidan turkumga birlashgan dostonlarning hajman kattaligi (monumentalligi) va xilma-xilligi, turkumlashishning murakkab jihatlariga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

O'zbek dostonlarida Go'ro'g'li turkman va o'zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o'z xalqi, vatani uchun qayg'uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko'plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu estetik bahodan kelib chiqib, epik Chambil yurtining azamat hukmdori Go'ro'g'lining bahodir qirq yigiti bilan birgalikda ona yerining xavfsizligi va ozodligiga tahdid soluvchi qo'shni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi butun xalq harakati, ozodlik urushi tarzida namoyon bo'ladiki, bu o'zbek eposidagi bosh

masaladir.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari O'zbekistonning barcha yerlarida yashagan baxshilardan, shuningdek, mamlakatimizdan tashqarida yashovchi o'zbeklar orasidan yetishib chiqqan ijodkorlardan ham yozib olingan. Xalq shoirлари Go'ro'g'lini buyuk samimiyat va iftixor bilan ardoqlab, uning xalqqa bo'lgan mehr-sadoqati, dushmanlarga cheksiz g'azab-nafrati, mamlakat mudofaasida yovuz bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurashlari, el-yurt farovonligi uchun g'amxo'rligini zavq bilan kuylaydilar. Turkumga kiruvchi barcha dostonlar ma'lum bir nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, jonli og'zaki epik an'anada yakka-yakka ijro etilsalar-da, ular epik Chambil yurti, Go'ro'g'li tipi, uning jangovar safar yo'ldoshi G'iro't, bir qator an'anaviy obrazlar (qirq yigit, Ahmad Sardor, Soqibulbul, parilar va boshqalar) kabi qator vositalar bilan o'zaro birlashadi.

O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida "Kunlarim", "Go'ro'g'li", "Go'ro'g'libek — zo'r botir", "Armoning qolmasin", "Bormi jahonda", "Armonim qolmadi" kabi termalar bilan bir qatorda har biri bir yarim-ikki ming satrdan tortib o'n-o'n ikki ming misrali (qariyb shuncha nasriy qism ham mavjud) ko'plab dostonlar yaratdi. Bu materiallarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir-biridan jiddiy ravishda farq qiluvchi ikki versiyada tarqalgan.

Bu versiyalarning biri Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlari bo'lib, ular turkman versiyasiga juda o'xshash, ozarboyjon "Go'ro'g'li"siga ancha yaqin turadi. Turkumga birlashgan Xorazm dostonlari syujet xarakteri, ijodiy uslubi va kuylanishi jihatidan jiddiy alohidaliklarga ega, ularning hajmi nisbatan qisqa. "Go'ro'g'lining do'rayishi", "Arab tang'an", "Avaz keltirgan", "Avaz uylantirgan", "Avazning ozod etilishi", "Qirq minglar", "Bozirgon", "Kampir", "Xiromon dali", "Gulruh pari" va boshqa dostonlar Xorazm "Go'ro'g'li" turkumini tashkil etadi.

O'zbekistonning Xorazmdan bo'lak yerlarida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, o'zlarining hajman juda kengligi, "monumentalligi" bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyatida va bir qancha motivlarda o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo alohida olingan doston va syujetlarda o'xshashlik deyarli yo'q, ya'ni birida bo'lgan doston (masalan, "Qirq minglar") ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, "Ravshan") birinchisida mavjud emas. Versiyalar orasida bu darajada jiddiy ayirmalarning mavjudligi turkumga birlashgan dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilganligi va mustaqil rivojlanishda davom etganligini ko'rsatadi.

"Go'ro'g'li" dostonlarini ko'p bilgan va go'zal kuylay olgan baxshilar ularning sonini "qirq" raqami bilan belgilaydilar. Ammo ularning hammasini to'la bilgan baxshilar aniqlangan emas. Faqat ayrim baxshilarning "Go'ro'g'li" dostonlarini ko'p bilganligi qayd etilgan, xolos. Bizning kuzatishimizcha, "qirq" raqami an'anaviy bo'lib, u haqiqiy holni ifoda etmaydi. Aslida o'zbek elida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlarining soni yuzdan oshadi. Hozirgacha folklorshunoslar tomonidan yozib olingan va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivida saqlanayotgan "Go'ro'g'li" dostonlarining soni oltmishdan ortiqdir. Turkumning variantlari va Xorazm "Go'ro'g'li"si bu hisobga kirmaydi. Xorazm dostonlarini maxsus o'rgangan professor S. Ro'zimboyevning

fikricha, vohada tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlarining umumiy soni yigirma to'rttadir. Shundan o'n sakkiztasi yozib olingan. Bunga haligacha yozib olinmagan, unutilib ketgan "Shodmonbek", "Doniyorxo'ja", "Oydinoy", "Xoldor buvish", "Bektosh arab", "Ahmad Sardorning suyagi", "Ahmad Sardor va Hasanxon", "Ahmad Sardor va Avaz", "Sherali" kabi o'nlab dostonlarni qo'shsak, yuqorida aytilgan yuz raqamiga yaqinlashib qolamiz. Yozib olingan dostonlarning baxshilar o'rtasida bo'linishi ham bir xilda emas. Masalan, atoqli baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'lidan 5, Fozil Yo'ldosh o'g'lidan 10, Islom shoirdan 3, Po'ltan shoirdan 16, Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan 2, Saidmurod Panoh o'g'lidan 1, Umir Safar o'g'lidan 3, Mardonaqul Avliyoqul o'g'lidan 2, Rahmatulla Yusuf o'g'lidan 27 doston yozib olingan.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarini o'rganishda bosh qahramonning epik biografiyasiga mos ravishda ularning birin-ketinlik tartibini belgilash ham muhimdir. Atoqli folklorshunos Hodi Zarif 1941- yilda nashr etilgan "Ravshan" dostoniga yozgan so'zboshisida 39 dostonning shunday birin-ketinligini belgilagan edi. Xorazm dostonlarini kiritmagan holda yozib olingan "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari silsilasini biz quyidagicha belgiladik: 1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. 2. Go'ro'g'lining bolaligi. 3. Chortoqli Chambil. 4. Zaydinoy. 5. Yunus pari. 6. Misqol pari. 7. Gulnor pari. 8. Qirq yigit bilan qirq qiz. 9. Hasan ko'lbar. 10. Rayhon arab. 11. Shohdorxon. 12. Zamonbek. 13. Xidirali elbegi. 14. Berdiyorotaliq. 15. Elomon. 16. Xoldorxon. 17. Soqibulbul. 18. Go'ro'g'lining Qrimga borishi. 19. Gov- daroz dev. 20. Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi. 21. Shoqalandar. 22. Ro'zaxon. 23. Yosqila. 24. Hasanxon. 25. Chambil qamali. 26. Dalli. 27. Avazxon. 28. Gulqizoy. 29. Oygul qizning vafoti. 30. Intizor. 31. Malika ayyor. 32. Mashriqo. 33. Zulfizar. 34. Bo'tako'z. 35. Qunduz bilan Yulduz. 36. Sarvinoz. 37. Balogardon. 38. Avazning arazi. 39. Ahmad Sardorning o'limga buyurilishi. 40. Avaz o'g'lonning Rumga qochishi. 41. Avazxonning o'limga hukm etilishi. 42. Girdob. 43. Xonimoy. 44. Avaz va Gultan. 45. Xushkeldi. 46. Oltin qovoq. 47. Zayidqul. 48. Gulixiromon. 49. Zarnigor. 50. Og'a Yunusning olib qochilishi. 51. Ravshan. 52. Nurali. 53. Nuralining yoshligi. 54. Balxivon. 55. Jorxon maston. 56. Sumbulsoch beka. 57. Nurali va Qari Ahmad. 58. Nuralining yutilishi. 59. Malla savdogar. 60. Jahongir. 61. Ero'g'li (Shahidnoma, Go'ro'g'lining o'limi, Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi).

Bir qarashda dostonlarning bunday birin-ketin qo'yilishi, ularga muayyan tartib berilishi ortiqchadek tuyulishi mumkin. Chunki ularning har birini kitobxon yoki tinglovchi mustaqil dostonlar sifatida qabul qila beradi. Ammo ular yaxlit olinganda, xalqimizning badiiy an'analari va epik qonuniyatlar asosida qachonlardir yetakchi baxshilar va dostonchilik maktablari vakillari tomonidan bir qahramon — Go'ro'g'li atrofiga birlashtirilgan.

Dostonchilar ma'lumotiga qaraganda, "Ero'g'li" turkumning oxirgi dostoni bo'lib, unda Go'ro'g'lining keksaygan davri va g'oyib bo'lishi tasvirlanadi. Epik an'anaga ko'ra Go'ro'g'liga uzoq umr — 120 yosh berilgan bo'lsa-da, u o'lmaydi, balki afsonaviy Sulduzi tog'ida g'oyib bo'ladi. Rivoyatlarga qaraganda, Go'ro'g'li keksayganda uning yorlari Yunus va Misqol parilar Go'ro'g'liga sening nomingni o'chirmaymiz, dostoningni aytiramiz, deb va'da bergan emishlar. Parilar esa o'lmaydi, ular baxshilarga qo'nib yurib, Go'ro'g'li so'zlarini ularning ichiga joylar emish. Shu tufayli baxshilar ham Go'ro'g'lining o'g'illari emish. Mana shunday e'tiqodlar tufayli irim qilib "Ero'g'li" dostonini yaxshi bilsalar ham boshqa asarlarday keng kuylab yurish baxshilar o'rtasida rasm bo'lmagan. Shuning uchun ham uning mukammal variantini yozib olishga muvaffaq bo'linmagan. Atoqli folklorshunos olim Hodi Zarif

ma'lumotlariga qaraganda, xalq shoiri Po'ltan repertuaridagi "Ero'g'li" dostonining she'riy qismining o'zi 12 ming misradan ortiqroq bo'lgan. Hozirgacha ushbu dostonning "Shahidnoma", "Go'ro'g'lining o'limi", "Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi" nomlarida ayrim notamom variantlari yozib olingan. Hozircha nisbatan to'la deb hisoblangan sherobodlik Yusuf O'tagan o'g'lidan 1945-yilda M. Afzalov yozib olgan "Shahidnoma" dostoni ham baxshilar repertuaridagi "Ero'g'li" dostonining barcha xususiyatlarini o'zida mukammal saqlay olmagan.

"Go'ro'g'li" dostonlari muayyan bir turkumni tashkil etsalar-da, ular qahramonning bir-biriga uzviy bog'langan muntazam biografiyasi emas, balki turli baxshilar va dostonchilik maktablari tomonidan uning ayrim jasorat va mardliklarini tasvirlovchi turli davrlarda yaratilgan asarlarning keyinchalik nasliy, biografik va geografik turkumlik doirasida o'zaro birlashtirilishidir. Shuning uchun ham bu dostonlar bir davrda bir-ikki baxshi tomonidan yaratilgan emas, balki ular juda uzoq davrlarda ko'plab talantli dostonchilar va dostonchilik maktablari kuchi bilan ijod etilgan. Ularning ba'zilari uzoq tarixda, O'rta Osiyoda islom dini tarqalishidan burungi davrlarda maydonga kelgan. Ba'zilari bundan uch-to'rt asr ilgari yaratilgan va zamonamizga qadar juda ko'p xalq shoirlari tomonidan har qaysisining o'z zamon talablariga ko'ra qayta-qayta ishlanib, ko'p variantlarda bizgacha yetib kelgan.

"Go'ro'g'li" dostonlari turkumi xalq bahodirining ajoyib-g'aroyib holda tug'ilishi va qahramonona yoshligini tasvirlovchi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlari bilan boshlanadi. Ularning Po'ltan variantida tasvirlanishicha, Go'ro'g'lining bobosi To'liboy sinchi Mari yurtining begi Qovishtixonning o'g'li bo'lib, yoshligida Yovmit podshosi Odilxonga asir tushadi.

To'liboy sinchi xizmatlaridan ko'ngli to'lgan Odilxon qizi Bibi Oyshani unga nikohlab beradi. Bulardan bo'lg'usi qahramonning otasi Ravshan tug'iladi. Taka-Yovmit yurtining doimiy dushmani Shohdorxonning navbatdagi bosqinchiliklaridan birida Ravshan, shuningdek, Taka-Turkman begi Jig'alixonning farzandlari Gajdumbek va Bibi Hilollar Zangar yurtiga asir tushib ketadi. Zangarda Ravshan bilan Bibi Hilol tasodifan uchrashib qolib, bir-birlarini sevib qoladilar va turmush quradilar. Bu orada Ravshanning sinchiligi xabari Shohdorxonga yetib keladi. Shohdorxon uni saroyga chaqirib, otlarini ko'rsatadi. Ravshan bular ichida tulpor yo'qligini aytib, holvachining otini maqtaydi. Achchiqlangan xon Ravshanning ko'zlarini o'yib oladi. Ravshan ko'r ko'zining xuniga holvachining otini tilab olib, shu ot yordamida qaynakasi Gajdumbek bilan Yovmitga qochadi. Zangarda qolgan Bibi Hilol qornidagi olti oylik gumonasi bilan vafot etadi. Go'rda o'lik onadan bo'lajak qahramon tug'iladi. Cho'pon Rustam uyuridagi bir baytal uni emizadi va keyinchalik Rustam yordamida shu baytalda Yovmitga qochib keladi. Ko'rinadiki, epos an'anasiga ko'ra, Go'ro'g'lining kelib chiqishi yuqori tabaqa bilan bog'lansa-da, u, avvalo, kambag'al bir otboqar sinchining o'g'li; cho'pon Rustam tarbiyasida voyaga yetadi, xalq qahramonlariga xos g'ayritabiiy yo'sinda tug'iladi va bahodirlik kamolotiga erishadi. Bu bilan, bir tomondan, Go'ro'g'lining yoshligidanoq xonlarga, saroy aristokratiyasiga qarshi tarbiyalanganligi ko'rsatilsa, ikkinchidan, uning epik Chambil yurtining qonuniy hukmdori ekanligi har jihatdan asoslanadi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlari ko'p planli asarlar bo'lib, ularda G'iro't biografiyasiga oid ajoyib ma'lumotlar ham bor. Bu ma'lumotlarga ko'ra,

qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'irdan ("suv oti"dan) urg'ochi qulun tug'iladi. Bu qulun uch yashar bo'lgach, Go'ro'g'li Rayhon arabning dong'i chiqqan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot — G'irko'k tug'iladi. G'irko'k yetti kunlik bo'lganda, onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli xil hayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go'ro'g'li bilan G'iro't orasida juda ko'p o'xshashliklar bor: dostonida har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi (To'liboy — Ravshan — Go'ro'g'li; qahramonni emizgan baytal — "suv ot" — G'irko'k); ikkalasi ham yetim; ikkalasi shirxo'ra va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti o'rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo'ylab izchil davom etadi. Dastlabki dostonida yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo'lining oldindan belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, Yovmit eliga xon qilib ko'tarilishi kabi voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shohdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayhon va Go'ro'g'li to'qnashuvlarida butun turkumga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Turkumning ushbu dastlabki dostonlaridayoq o'zbek "Go'ro'g'li"sig'a xos bo'lgan cheksiz fantaziya, ko'z ilg'amas geografik va etnografik kengliklar to'la namoyon bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, "Yunus pari", "Misqol pari", "Gulnor pari" dostonlarida yanada yorqin ko'rinadi. Bu asarlar Go'ro'g'lining uylanishi va shu bilan bog'liq qahramonliklariga bag'ishlangan. Epik an'anaga ko'ra, Go'ro'g'lining ikki xotini — Yunus pari va Misqol parilar (Po'ltan varianti bo'yicha uchinchisi — Gulnor) bor. Ular Ko'hi Qofda Iram bog'ida yashaydi, ularni juda katta g'ayritabiiy kuchlar — devlar qo'riqlaydi. Parilar Go'ro'g'liga ilgaridan "belgilangan" bo'lsa-da, ularni qo'lga kiritish uchun yuksak jismoniy kuch bilan bir qatorda aql, farosat, usta tadbirkorlik ham kerak edi. Go'ro'g'li buni qoyil qilib bajaradi. Dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ideal ko'rinishi sifatida keng, hayotiy lavhalarda juda real tasvirlanadi. Baxshi inson turmushi bilan bog'liq hayotiy, tarixiy va etnografik tafsilotlarni muhabbat bilan bayon etadi. Kitobxon va tinglovchi shunday bir bepoyon fantastik olamga olib kiriladiki, aql bovar qilmas bu yuksak olamda inson turmushi, tafakkuri, kurashlari, hasrati va xursandchiligi namoyon bo'ladi. Real hayot bilan mustahkam bog'liqlik bunday chiroyli fantaziya namunalari "Go'ro'g'li" dostonlaridan istagancha topsa bo'ladi ("Balogardon", "Malika ayyor", "Mashriq" va boshqa dostonlarni eslash kifoya).

Turkumda Go'ro'g'li va Chambil yurtining doimiy tashqi dushmanlari sifatida Rayhon arab, Bektosh arab, Xunxorshoh va boshqalar tilga olinadi. Shirvon xoni Rayhon arabning Go'ro'g'lining yangasi (Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketishi va, o'z navbatida, yosh Go'ro'g'lining Rayhon arabning qizi Zaydinoyni tog'asiga keltirib berishi ("Zaydinoy" dostoni) ular o'rtasidagi qator dushmanlik harakatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday dushmanlik harakatlari ko'pchilik asarlarda epizodik tarzda tilga olinsa, ayrim dostonlarda ("Rayhon arab", "Chambil qamali", "Bektosh arab", "Xoldorxon" va boshqalar) bu narsa ikki taraf o'rtasidagi haqiqiy jang tarzida kengaytiriladi. Lekin bosqinchilik urushini har gal arab yoki xunxor hukmdorlar boshlaydi va har gal ular Go'ro'g'lidin yengiladi.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning ota jihatdan tog'asi (otasi Ravshanning tog'asi) Ahmad Sardor bilan, Ahmad Sardorning qirq yigiti, Hasan, Avazlar bilan munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Ahmad Sardorning oilaviy va siyosiy intrigalari, uning Go'ro'g'li va uning yigitlariga, ayniqsa, Avazxonga nisbatan g'arazi ayrim asarlarda ("Xushkeldi", "Avazning arazi" "Intizor", "Xoldorxon", "Xidirali elbegi", "Malika ayyor" va boshqalar) umumiy tarzda, epizodik xarakterda bo'lsa, bir qator dostonlarda ("Ahmad Sardor

va Hasanshoh", "Ahmad Sardor va Avaz", "Avazxonning o'limga hukm etilishi") bunday harakatlar asar syujetining asosini tashkil etadi.

Turkumda Go'ro'g'lining bahodir qirq yigitiga alohida o'rin beriladi. Bular Go'ro'g'lining bahodirliklarini tan olib, uning atrofiga ixtiyoriy ravishda uyushgan turli urug' va qabilalarning beklari hisoblanadi. Masalan, Zamonbek taka urug'idan, Shodmonbek o'zbekning muytan urug'idan, Xidirali elbegi qoraqalpoq, To'lak botir tojik va boshqalar. Ayrimlarini esa (Xoldorxon, Yusuf sulton, Ashurbek) Go'ro'g'libek turli mamlakatlardan olib keladi. O'tmishda turli urug' va qabilalar o'rtasida kelishmovchilik va nizolar bo'lib turgan bir paytda Go'ro'g'li hukmdorligining bunday baynalmilal tus olishi katta ahamiyatga ega. Bu san'atkor baxshilarimiz ijtimoiy-siyosiy utopiasining ajoyib mahsulidirki, millatlar, el-elatlar do'stligi va birodarligini hamisha ardoqlab va kuylab kelgan xalqimiz tabiatiga, uning buloqdek qaynab turgan badiiy ijodi mohiyatiga batamom mosdir. Go'ro'g'lining qirq yigiti — qayerdan va qaysi urug'dan bo'lmasin, — epik ozodlik o'lkasi Chambilning ozodligi, xalqining farovonligi uchun tinmay kurash olib boradi. Shuning uchun ham ular baxshilarimiz tomonidan buyuk samimiyat va hurmat bilan ulug'lanadi. Go'ro'g'lining doimiy yo'ldoshi bo'lgan bu jasur yigitlarning bir qanchasi faoliyatiga alohida-alohida dostonlar ("Xoldorxon", "Zamonbek", "Xidirali elbegi", "Berdiyor otaliq", "Hilomon", "Shodmonbek", "Doniyorxoja" va boshqalar) bag'ishlangan.

Turkumdagi anchagina dostonlar Go'ro'g'lining asrandi farzandlari — Hasan, Avaz, nevaralari — Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan kichik turkumlarni tashkil etadi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarning olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar ("Hasanxon", "Avazxon") bilan boshlanadi. Hasan va Avazning har birining o'z epik biografiyasi bor, har bir turkumda muayyan o'rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston ("Dalli")ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa butun bir dostonlar ("Balogardon", "Intizor", "Bo'tako'z", "Qunduz bilan Yulduz", "Zulfizar bilan Avaz", "Gulxiromon", "Malika ayyor", "Mashriqo", "Gulqizoy" va boshqalar) turkumining bosh qahramonidir. Bu dostonlarning asosini Avazxonning turli afsonaviy mamlakatlar go'zallarini olib kelish uchun ko'rsatgan bahodirliklari tashkil etadi. Hasan va Avaz kichik turkumlari Go'ro'g'li, G'iro't, qirq yigit, doimiy an'anaviy obrazlar (Ahmad Sardor, Soqibulbul, Hasan ko'lbar va boshqalar), Chambil yurti orqali Go'ro'g'li turkumiga birlashadi.

Nasliy turkumlik doirasida yuzaga kelgan navbatdagi dostonlar Go'ro'g'lining nevaralari - Nurali va Ravshanlarning nikoh safari va boshqa sarguzashtlarini tasvirlovchi asarlardir ("Nurali", "Ravshan", "Nuralining yoshligi", "Sumbulsoch bekach" va boshqalar). Nasliy turkumlanishda so'nggi bosqichni Go'ro'g'lining evarasi (Nuralining o'g'li) Jahongir haqidagi epik rivoyat tashkil etadi. Go'ro'g'lining o'g'illari, nevaralari va evarasi haqidagi dostonlar uning "farzandsiz"ligini keyingi planga suradi. An'anaga ko'ra, "farzandsiz" hisoblangan Go'ro'g'li oqibatda uch avlod qahramonlarining sardori va murabbiysi sifatida maydonga chiqadi. Shunday qilib, turkum dostonlari xalq hayoti, turmushi va maishatini, orzu-umidlar va ideallarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng planda tasvirlovchi buyuk epopeyadir.

Qachonlardir yaratilgan bu silsila dostonlar baxshilarning og'zaki ijrolari orqali bizgacha yetib kelgan. Taniqli xalq shoiri, o'zbek dostonlarining ulkan bilimdoni, ajoyib

qissaxon-dostonchi Rahmatulla Yusuf o'g'li ana shunday ijodkorlardandir. Rahmatulla Yusuf o'g'li 1917-yilda hozirgi Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumani Jo'sh fuqarolar yig'iniga qarashli Qorakisa qishlog'ida ovchi-dehqon oilasida tug'ildi. Yoshligidan xalq ijodiga qiziqqan va shu ruhda tarbiyalangan Rahmatullaning butun hayoti asosan shu qishloqda o'tdi. To'qqiz yoshida bobosi qo'lida eskicha savodni chiqargan Rahmatulla arab va fors tillarini o'rgana boshladi, badiiy ijod bilan shug'ullandi. Rahmatullani o'zbek xalq dostonchilik san'ati butunlay o'z sehriga oldi. U dostonchilik sirlarini puxta o'rganish maqsadida zamonamizning atoqli dostonchisi Ergash Jumanbulbul o'g'liga shogird tushdi. Ergash ota vafotidan keyin dostonchilik ta'limini boshqa bir ulkan san'atkor— Po'lkan shoir qo'lida olishni davom ettirdi. Natijada u 22—23 yoshlarida mustaqil dostonchi-qissaxon bo'lib yetishdi.

Rahmatulla Yusuf o'g'li uzoq yillar davomida Jo'shdagi maktablardan birida kutubxonachilik qilish bilan birga, o'zi bilgan xalq dostonlari va termalarini el orasida aytib yurdi. U qirqdan ortiq xalq dostonlarini, juda ko'p ertak va termalarni yod bilar edi. Rahmatulla 1946-yilda Toshkentda o'tkazilgan xalq ijodkorlari olimpiadasida qatnashib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning doston va termalari shu yildan boshlab yozib olinib boshladi. Ularning ko'plarini shoirning o'zi yozib, folklor arxi viga topshirdi. Chunki u arab, lotin, kirill yozuvlari asosidagi o'zbek alifbolarini puxta bilar edi.

Rahmatulla Yusuf o'g'li xalq ijodi yo'lida barakali ijod etgan shoir hamdir. Uning she'r va ter malari 1943-yildan boshlab vaqtli matbuotda muntazam bosilib turdi. U aytgan "Tohir va Zuhra", "Vomiq va Uzro", "Varqa bilan Gulshoh", "Zevaxxon", "Sumanbar" kabi dostonlar alohida kitob bo'lib nashr etilgan, to'plamlarda bir necha ertaklari bosilgan.

Rahmatulla Yusuf o'g'li xalq ijodi namunalarini to'plashda ham faol ishtirok etdi. U Samarqand viloyatiga uyushtirilgan barcha folklor ekspeditsiyalarining doimiy ishtirokchisi va yo'l ko'rsatuvchisi edi. Shoir 1987-yilning 27-iyulida o'z qishlog'ida vafot etdi.

Rahmatulla Yusuf o'g'lidan juda katta folklor boyligi meros bo'lib qoldi. Uning kattagina qismini 27 nomdagi "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari tashkil etadi. Bundan tashqari, shoirdan "Alpomish", "Qironxon", "Yozi bilan Zebo", "Zarkokil" dostonlari, juda ko'p termalar, ertaklar, rivoyatlar, naqlar, atamalar yozib olingan.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining shoir tomonidan qalamga olinishi va folklor arxiviga topshirilishi o'z tarixiga ega. Turkum dostonlarning o'zi bilgan namunalarini birinchisidan oxirisigacha yozib chiqish niyati shoirning o'zida paydo bo'lgan edi. Ammo o'z vaqtida atoqli olim Hodi Zarif nima uchundir bu niyatni qo'llab-quvvatlamagan. Bizningcha, Rahmatulla Yusuf o'g'lining do'mbira jo'rligida doston kuylamaganligi, balki ularni og'zaki aytganligi olimni o'ylantirib qo'ygan bo'lsa kerak. Ammo Hodi Zarif Rahmatulla Yusuf o'g'lini xalq ijodining katta bilimdoni va o'ziga xos ijrochisi sifatida qadrlar va unga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lar edi. 1962-yilning iyul— avgust oylarida Hodi Zarif boshchiligidagi kamina, Malik Murodov, Zubayda Husainovalar Samarqand viloyatida folklor ekspeditsiyasida bo'lganimizda, bu masala yana ko'tarildi. Bu gal ustoz H. Zarif Ergash shoir ham do'mbira chertishni tashlab, xalq dostonlarini og'zaki aytib yurgan paytlarda yozib olish ishlari boshlanganligini aytib, rozi bo'ldilar. Ammo sun'iylikka yo'l qo'ymaslikni, xalq o'rtasida qanday kuylangan bo'lsa, shundayligicha, ustozlardan qay darajada o'rganilgan bo'lsa, shundayligicha yozib chiqishni qat'iy tayinladilar. Rahmatulla aka bu ishga 1964-yilning 8-oktabridan kirishdi va qariyb bir yarim yil davomida uni a'lo darajada bajardi.

Endi shoirning o'z dastxatlarida dostonlar orasida bergan izohlariga suyanib, "Go'ro'g'li" dostonlarining qalamga olinish jarayonini kuzataylik. Chunki turkum dostonlarining ketma-ketlik tartibini xalq shoirining o'zi belgilashi va shundayligicha qalamga olinishi o'zbek folklorshunosligida birinchi tajribadir. Qo'lyozma shunday bir muhim tushuntirish xati bilan boshlanadi: "Baxshi va shoirlarning katta ustozlaridan biri: "Qarilikning haddi qirq besh yoshdan to oxir umrgacha", — debdir. Lekin bu zamonda barcha yoshimsig'ari¹ kabi men ham yoshimsib², qirq yettidan qirq sakkizga yoshim o'tayotgan vaqtlarimda ham hali ancha bola fe'lman. "Xotin qayoqdan bo'ladi desa, shu ovulning qizlaridan bo'lar ekan", — deb birov aytgan ekan. Shunga o'xshab, chol boboylar qanday qilib chol bo'ladi, desa, menga o'xshagan bolalardan bo'lar ekan-da. Mana, bir qarasam, ba'zi shamoli o'ng kelgan mendan uch-to'rt yosh kichkina yigitlar kelinli, nabirali bo'lib qolibdi. Insof yuzasidan shunga qaraganda, men ham boboylar qatoriga o'tibman-da. Tishlar tushib, soch-u soqollar oqarib, boboylikning alomatlari har kimda ham boshlangandan keyin, agar kishi o'lmasa, bu yog'ini ham muqarrar ko'radi-da!

Shuytib, bu sog'lom quvvatlarimni bekorga o'tkazib yubormasdan, bu shirin damlarni g'animat bilib, zamirimda ozmi-ko'pmi mavjud bo'lgan shoirlik ta'bimni qadrlab, ulug' baxshi Ergash Jumanbulbul, Muhammadqul Po'lkan va boshqa bir baxshilardan eshitib, qalbmida hifz aylab³ kelayotgan dostonlarning zubdasi⁴ hisoblanmish "Go'ro'g'li" dostonini qariyb o'ttiz yildan buyon solishtirib, o'rganib kelayotganim natijasini hosilga endirsam, albatta, yomon ish bo'lmas, deb o'ylayman.

Ma'lumki, "Go'ro'g'li" dostonining asli holiga juda ko'p baxshilar tomonidan qo'shilib, chalkashib ketgan. Bunga sabab: kishilarning baxshilarga: "Hech eshitmagan doston aytib bering", — degan talabiga binoan gapga chechanroq baxshi darhol, masalan, Avazxon unday qildi, bunday qildi, deb yo'qdan bir ajoyib dostonni qotirib, yasab aytgan. Ana shunday qilib, Jassoq baxshi Sangzor betga bir borganida, "Kiyik va toshbaqa" degan dostonni "Go'ro'g'li" dostonlari hisobidan aytgan, degan gap bor.

Endi men, Rahmatulla Yusuf o'g'li, ana shunday to'qima doston yozishlarga tavba qilish bilan birgalikda, shu "Go'ro'g'li" dostonini islohlab, tuzib, to'plashni o'z zimmamda qarz ham farz deb bildim. Negaki, shu o'tgan ustozlarning so'nggi davomchisi ekanligim namoyon bo'lishi kerak-da".

Shoirning bunday izohlari fan uchun nihoyatda muhimligini hisobga olib, har bir dostonga bergan nomi va raqamini ham ko'rsata boramiz:

"Birinchi doston: "Go'ro'g'lining tug'ilib o'sishi".

Ikkinchi doston: "Go'ro'g'lining bolaligi".

Uchinchi doston: "Chortoqli Chambil".

To'rtinchi doston: "Rayhon arab".

Beshinchi doston: "Yunus bilan Misqol".

Oltinchi doston: "Hasanxon".

Yettinchi doston: "Qirq yigit va qirq qiz".

Bu dostonchani 1946-yilning yozida Mansur Afzalovning amri bilan Hojiyaoy mendan yozib olib, o'sha vaqtdagi O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy-tekshirish institutidagi folklor sektorida saqlashga olib qolgan edi. Shuytib, yana bu yerda yozib o'tirishga hojat bo'lmadi. Albatta, folklor sektoridagi qo'lyozmalar yo'qolmas-yitmas. Mavzudor bu

dostonchani o'qiyman degan o'quvchilarga o'sha joydan olib o'qishni havola aylab, bu yerda so'zimni muxtasar etdim".

Haqiqatan ham, mazkur dostonni 1946-yilda folklor bo'limining o'sha paytdagi xodimasi Hojiya Shokirova yozib olib, arxivga topshirgan ekan. Shoir o'zining nazdidagi olti dostonni o'z ichiga olgan birinchi kitobni tugallar ekan, qo'lyozma so'ngida yana bir necha izohlar va bir to'rtlik terma ilova qiladi: "Shunday qilib, "Go'ro'g'li" dostonlari majmuasining avvalgi birinchi kitobini tugatdim. Lekin bu kitobning ba'zi dostonlarida afsonalar va falsafiy so'z uydirmalari ham yo'q emas, albatta. Agar shunday qilinmasa, ya'ni, masalan, "Yunus va Misqol" dostonining o'rni bo'sh qoldirilishi kerak bo'lib qolar edi. Shuning uchun ba'zi xatolarni o'quvchilar yolg'onga jo'ymasdan, tanqidiy yoki falsafiy nazariya bilan qarab o'tar, degan umiddaman. Shuning bilan ikkinchi kitobni yozishga o'taman. Ko'zimga, o'zimga va tizimga kuch-u quvvat hosil bo'lg'ay, deb umid qilaman.

Xalqqa bu kitobni to'rt-besh marta o'qib berib, ularning oldidan o'tganimda, ba'zi kishilar: "Ahmad Sardorga Go'ro'g'libek mulla tishov qilib berdi", — degan joyini olib tashlashni tavsiya etdilar. Albatta, xullusi kalomni¹ miridan sirigacha ayiruvchi o'rtoqlar unday joylarini o'zlari islohga keltirurlar, vassalom.

Rahmatulla, xudoy senga til berdi,

Osmondan, zamindan kengish dil berdi,

Orzu-diling ko'chirmakka qo'l berdi,

Shukrini ado qil, endi vaqtidir

Shoir "Go'ro'g'li" majmuasining ikkinchi kitobi qo'lyozmasini shunday izohlar bilan boshlaydi: "Ma'lumki, "Go'ro'g'libekning Avazxonni olib keltani" degan doston inqilobdan avval Qozon va Toshkentda savdogarlar tomonidan nashr qilinib, tezlik bilan butun o'zbeklar elatiga tarqalgan edi. Mazkur kitobchanning Toshkent bosmasi bo'lgan "Go'ro'g'li botasvir" bizning ovulga, nihoyat, 1927- yilda yetib, o'sha vaqtdagi hamma dostonchi, baxshilarning, hatto "arab harfida yozilgan kitobning hammasi rost", — deb tushungan ulug' Ergash Jumanbulbul o'g'lining ham zamiriga singib, mazkur dostonni avvalda har birlari turlicha aytib yurganlari ham yo'qolib, kitobnikini aytmoq kerak, degan fikr paydo bo'lgan. Shunday qilib, barcha baxshilarga yoyilib, keyinchalik o'sha nashrdan chiqqaniga o'xshagan qilib aytmoq odat bo'lib ketdi.

Hozir, masalan, bir kichikroq baxshidan: "Mazkur dostonning boshqa xili ham ilgari aytilarmidi?" — deb so'ralsa, "Yo'q", — deb qisqa javob beradi. Aslida, yaqinida ham mazkur dostonning bir-ikki xilda kuylanishini unutib yuborishgan. Men shu avvalgi ariqlarni qazib, mazkur dostonning boshqa bir xilini bayonga keltirmoqchiman. Albatta, eshitganlarga rahmat va mayda baxshilar uchun ko'milgan ariqlarni ochib bersam, shuning o'zi mening uchun bir katta sharafdir".

"Ergash Jumanbulbul o'g'li bilan Po'lkandan boshqa men suhbatidan bahramand bo'lgan baxshilarni nom-banom takrorlayman. Birinchi. Usta Xolqul — qorakisalik, Ergash ota shogirdi, qariyb Po'lkancha bor edi. Ikkinchi. Bo'ta baxshi — Yonboshdan. Uchinchi. Egamberdi baxshi. To'rtinchi. Sarimsoq baxshi — qorakisalik, 1938-yilda o'lgan. Bular chiqib baxshilik qilgan. Beshinchi. Norqul qora, hozirgi ayolimning otasi. Bu chiqib baxshilik qilmagan. Kichikroq baxshilardan: Abdulla baxshi — chinoqlik. Xo'ja baxshi — burganlik.

Jolg'osh baxshi, Qo'ldosh ustalar — qo'rg'onlik. Eng mayda baxshilardan: Farmon, Mardi, Qurbonqul baxshilardir. Ammo Toshniyoz baxshi kitobdan yodlab o'quvchi baxshi edi".

"Sakkizinchi doston: "Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelgani". To'qqizinchi doston: "Xon Dalli". Bu doston "Hasanxon" nomi bilan Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan Toshkentga yozib berilgan. Shuning uchun ustodning yuzini bosmayin, deb bu dostonni qaytadan yozib o'tirmadim".

"O'ninchi doston: "Avazxonning qochishi". Bu doston ham inqilobdan ilgari nashr etilgan. "Avazxonning qochishi" dostonidan deyarli farq qilmaydi. Shuning uchun bu yerda yana qaytarib yozib yurmadim.

O'n birinchi doston: "Avazxonning uylanishi".

O'n ikkinchi doston: "Govdarozi dev".

O'n uchinchi doston: "Chambilga besh podshoning yov bo'lib kelishi".

O'n to'rtinchi doston: "Sarvinoz".

O'n beshinchi doston: "Hasan ko'lbar voqeasi".

Uchinchi kitob qo'lyozmasi shunday izoh bilan boshlanadi: "Bu dostonlar, ya'ni men "Avaz o'g'lon" deb atagan "Go'ro'g'li" kitoblarning uchinchisiga kiritilgan dostonlarning biroz qismini 1933—1934-yillarda Ergash ota yozib, chala qoldirgan. Afsuski, o'sha vaqtlarning o'zida Toshkentga eltib berolmay, yo'qotib yuborgan edi.

1935-yilda men ham o'sha notamom kitobni o'qib chiqqan edim. O'sha vaqtda o'qib chiqqan, bu "Avaz o'g'lon" kitobiga kiritilgan ba'zi qismlarni Ergash Jumanbulbul o'g'lining syujet tuzishi asosida yozdim. Qolgan boshqa qismlarini kattali-kichili baxshilardan eshitishim asosida yozib, ixchamlashtirdim, uslublarini o'zim o'z tilim bo'yicha ancha silliqalashtirdim.

"Go'ro'g'li" dostonlarini jovlik qilib to'plasam, deb 1948-yilda ulug' olim, baxshilarning baxshisi, Aflotun minish Hodi Tillayevich Zarifov akaga xat yozgan edim.

Menga tole yorlik qilib, 1965-yilda "Go'ro'g'li" dostonlarini to'plab, hozircha ikki kitobni yozib tamom qilib, uchinchi kitobiki, "Avaz o'g'lon"dir. Yana baxt-u iqbol menga yor, toleim madadkorlik qilsa, bu yog'ini ham yozib tugatarman. Mendan shu kitobimni o'qigan va eshitganlarga salom".

O'n oltinchi doston: "Go'ro'g'lining Ahmad Sardorni o'limga buyurishi".

O'n yettinchi doston: "Avaz o'g'lonning Rumga qochishi".

O'n sakkizinchi doston: "Balogardon".

O'n to'qqizinchi doston: "Chambil qamali".

Bu dostonni Ergash Jumanbulbul o'g'li va Po'ltan bilgan, deb eshitganman. Lekin o'zim na Ergash Jumanbulbul, na biror boshqa baxshidan, hech bo'lmasa, qissasini ham eshitmagan edim. Faqat darslikda ko'rdim. Bu dostonni Ergash otaning Toshkentga yozib berdim deganini ham eshitmagan edim. Binobarin, bu yerda dostonning o'rnini qo'yib ketdim.

Yigirmanchi doston: "Oygulqizning vafoti".

Yigirma birinchi doston: "Xushkeldi".

Bu dostonni "Xushkeldi" nomi bilan Ergash Jumanbulbul o'g'li o'z vaqtida Toshkentga yozib bergan. Men ham 1958—59-yillarda poema tariqasida qisqa qilib Toshkentga yozib bergan edim. 1959-yilda professor o'rtoq Reshitov lentaga ham olgan edi. Shuytib, bu yerda o'rni qoldirildi".

Haqiqatda ham Rahmatulla Yusuf o'g'lining "Xushkeldi" dostonining "Qatortol" nomida she'riy yo'lda yozib chiqqan nusxasi folklor arxivida saqlanmoqda. Ammo unda xalq dostonlariga xos an'anaviy uslub buzilgan va unga folklor asari sifatida qarashga asos yo'q.

"Yigirma ikkinchi doston: "Qunduz bilan Yulduz". Bu dostonni ham Ergash Jumanbulbul o'g'li Toshkentga o'z vaqtida yozib berib, bir-ikki marta nashr etilgandir. Shuning uchun yana qaytarib yozib o'tirishga hojat qolmagandir.

Shuning uchun "Go'ro'g'li" dostonlari kitobining uchinchi kitobini ham yozib tugatdim. Yor-u birodarlardan kitob ichidagi ba'zi nuqsonlarni tuzatib, islohga keltirishlarini so'rayman. Barcha olim o'rtoqlarga salom va ehtirom bilan Rahmatullo Yusupov."

Shoir dostonlararo berib borayotgan izohlarning izchilligiga qaraganda, "Go'ro'g'li" majmuasining to'rtinchi kitobi qo'lyozmasi yigirma uchinchi dostondan boshlanishi yoki o'rin bo'sh qoldirilsa, biror izoh berilishi zarur edi. Ammo qo'lyozmadagi izchillik yo'qoladi. Shoir bu o'ringa qanday dostonni mo'ljallaganligini bilmaymiz, hatto nomi ham keltirilmaydi. To'rtinchi kitob qo'lyozmasi to'g'ridan to'g'ri izohsiz yigirma to'rtinchi dostondan boshlanib keta beradi:

Yigirma to'rtinchi doston: "Shoqalandar".

Yigirma beshinchi doston: "Ro'zaxon".

Yigirma oltinchi doston: "Yosqila".

Yigirma yettinchi doston: "Xiromon dalli".

Shoirning fikricha, yigirma sakkizinchi doston "Ravshanxon" bo'lishi kerak. Bu ham Ergash otadan yozib olinganligi uchun bu yerda qayta yozilmagan.

Yigirma to'qqizinchi doston: "Bozirgon arab".

O'ttizinchi doston: "Shahidnoma" ("Go'ro'g'lining o'limi").

Shunday qilib, shoir o'zi bilgan va voqealar jihatidan bir-biri bilan bog'liq "Go'ro'g'li" dostonlarini o'ttizta, deb biladi va ulardan yigirma uchtasini yozib, to'rt kitobga jamlab, folklor arxiviga topshiradi. Shu bilan birga, uning nazarida voqeasi jihatidan uzilib qolgan dostonlar ham mavjud. Shundaylardan biri "Zulfizar"dir. Shoir "Zulfizar" dostonini qalamga olar ekan, qo'lyozmaning boshlanishida shunday muhim bir tushuntirish beradi: "Menga toleim yorlik qilib va baxtim madadkorlik aylab, 1964-yil 15-oktabrdan boshlab 1966-yil 15-fevralgacha to'rt kitobdan iborat "Go'ro'g'li" dostonlari majmuasini yozdim, ya'ni "Go'ro'g'li" dostonlari majmuasini yozib tugatgunimcha o'n olti oy sarf etdim. Ammo men to'plagan "Go'ro'g'li" dostonlari majmuasiga kirmagan, ya'ni voqei jihatdan uzilib qolgan uzma dostonlardan ham zamirimda saqlaganlardan "Sumbulsoch beka", "Malika ayyor", "Zulfizar" kabi dostonlar bordir. Lekin shu mazkur dostonlardan "Malika ayyor"ni mukammal bilmaganman. "Sumbulsoch beka"ni bo'lsa, Toshkent Fanlar akademiyasining Folklor sektoriga yozib bergan edim. Shuytib, endi bu yerda bu daftarga "Zulfizar" dostonini yozaman. Shuning bilan "Go'ro'g'li" dostonlaridan bo'lgan, mening zamirimda saqlanayotgani tamom bo'ladi.

Agar folklorist olimlar lozim topsa, "Sumbulsoch beka" bilan bu "Zulfizar" dostonimni ham bir kitob qilib, to'rt kitoblik "Go'ro'g'li" dostonlari majmuasining yonashiga beshinchi kitob qilib qo'shib qo'yar. Shuning bilan umid qilamanki, men bilmagan "Go'ro'g'li" dostonlaridan ko'plarini boshqa baxshi birodarlarim to'plab berar. Mendan barcha adabiyot muxlislariga ko'pdan-ko'p salomlar bo'lg'ay".

Dostonchi-qissaxon (baxshi) Rahmatulla Yusuf o'g'lining o'zi bilgan dostonlarni o'zi yozib topshirgan qo'lyozmasidagi bunday tafsilotlarga atroflicha e'tibor berayotganligimizning muayyan sabablari bor, albatta. Birinchidan, yuqorida aytilganidek, "Go'ro'g'li" turkumini to'la biladigan dostonchi hali aniqlangan emas. Bu o'rinda bir ijodkor repertuaridagi mavjud dostonlarning ijrochi-qissaxonning o'zi tomonidan tartib berilishi va ketma-ket yozilishi o'zbek folklorshunosligida o'ziga xos ilk noyob hodisadir. To'g'ri, folklorshunoslik tarixida shunga o'xshash o'rinlar bo'lgan. Masalan, 1927-yilda Po'ltan shoiridan "Go'ro'g'li" dostonlarini ketma-ket yozib olish ishi tashkil etilgan. Ammo 4—5 doston yozib olinishi bilan bu ish to'xtab qolgan.

Ikkinchidan, bunday tafsilotlar bir qarashda oddiy, qandaydir ahamiyatsiz izohlarga o'xshab ko'rinishi mumkin. Aslida esa, ular aytuvchining epik repertuarga, undagi u yoki bu hodisaga, dostonlardagi ba'zi epizodlarga, tinglovchi va folklorshunoslarga munosabatini o'rganishda juda ahamiyatlidir.

Uchinchidan, biz faqat doston matnini yozib olamiz. Matn orqasida esa (san'atshunoslar ta'biri bilan aytganda, sahna ortida) katta "hayot" bor, dostonning ijrosi va kuylanishi bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayon bor. Folklorshunoslik ishlarimizda ana shu jarayonni kuzatish borasidagi materiallar yetishmayotir yoki ular folklorshunoslarning kundaliklarida qolib ketmoqda. Rahmatulla Yusuf o'g'lining yuqorida biz keltirgan izoh va tushuntirishlari, bu yerda eslatish imkoni bo'lmagan, ammo qo'lyozma hoshiyalaridagi yana allaqancha qaydlari, lug'atlari, qistirma satrlari matn orqasidagi ana shu o'ziga xos "hayot"ni o'rganishda, shubhasiz, katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham shoir dostonlarini nashrga tayyorlashda shu va shu kabi bir qarashda ikkinchi darajali ko'ringan qaydlarga alohida e'tibor qaratishni zarur, deb topdik.

"Go'ro'g'li" dostonlarining ushbu nashri yuqorida shoir qaydlari asosida ma'lum ma'noda tavsifi berilgan yagona nusxalar asosida nashrga tayyorlandi. Bulardan bir dostonni, yuqorida aytilganidek, "Qirq yigit va qirq qiz" dostonini Hojiya Shokirova yozib olgan, qolgan barcha namunalarni shoirning o'zi yozib topshirgan. "Qirq yigit va qirq qiz", "Nuralining yoshligi", "Sumbulsoch beka" dostonlari 1946—1947-yillarda, qolganlari esa, yuqorida aytilganidek, 1964—66-yillarda qalamga olingan. To'la ravishda yozib olinmagan "Avazxonning o'limga hukm etilishi" dostonining qalamga olinish yili noma'lum. Ushbu nashrga folklor arxivida saqlanayotgan va Rahmatulla Yusuf o'g'liga mansub "Go'ro'g'li" dostonlarining barcha nusxalari qamrab olindi. Faqat "Qatortol" ("Xushkeldi") dostoni kiritilmadi, chunki u xalq dostonlari uslubiga mos emas. Buni shoirning o'zi ham tan olgan.

Bu o'rinda yana ikkita istisno haqida so'zlashga to'g'ri keladi. Gap shundaki, "Ro'zaxon", "Yosqila" asarlari "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ruhiga uncha mos kelmaydi. Ular Qo'rg'on dostonchilik maktabi vakillarining keyingi davrlardagi "yangiligi" yoki Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuariga to'la ravishda "o'zlashmagan" namunalar bo'lishi mumkin. Xalq dostonchiligining barqaror jonli an'analari so'na boshlagan davrlarda baxshilar repertuarida shu xildagi namunalarning paydo bo'lishi tabiiydir. Shuningdek, "Bozirgon", "Xiromon doli" kabi Xorazm dostonlarining ushbu nashrga kiritilishini ham Qo'rg'on dostonchilari repertuari bilan bog'liq "yakka hodisalar" sifatida qaramoq zarur. Chunki ular Xorazmdan bo'lak yerlarga tarqalmagan. Ayrim baxshilar repertuariga Xorazm dostonlarining kirib qolishi keyingi davr hodisasi hisoblanadi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, to'plamga kiritilgan dostonlarning badiiy saviyasi bir xilda emas. "Nuralining yoshligi", "Sumbulsoch beka" kabi bir qator dostonlar badiiy jihatdan ancha bo'sh. Bu narsa baxshining o'sish-ulg'ayishi, epik repertuarni o'zlashtirish darajasi kabi bir necha omillar bilan bog'liqdir. Umuman, dostonchilik, jumladan, ayrim baxshilar repertuarini yaxlit baholash uchun bu xil namunalarni ham to'plash va nashr etish katta ahamiyatga egadir.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari yaxlit holida birinchi marta nashrga tayyorlandi. Buning ustiga, bir dostonchi, qissaxon-baxshi repertuari asosida bunday nashrni amalga oshirish ilk tajriba hisoblanadi. Umid qilamizki, bu tajribani didi baland kitobxonlarimiz xushnudlik bilan kutib oladilar. Zero, ushbu nashr xalqimiz ijodining yana bir yorqin sahifasini bo'y-basti bilan namoyish etgusidir.